



MAVZU: MUALLIFLIK SHARTNOMALARIDA NIZOLARNI HAL ETISH VA ULARNING TURLARI

Maxmudova Nozima Yusupovna

O'zMU talabasi

Annotatsiya- *Mualliflik huquqi zamonaviy intellektual mulkning muhim elementi bo'lib, muallifning ijodiy mehnatini himoya qiladi. Mualliflik shartnomalarida yuzaga keladigan nizolar turli sabablarga ko'ra — moliyaviy kelishmovchiliklar, foydalanish huquqlari buzilishi, shaxsiy huquqlar tahdidi va shartnoma shartlarining buzilishi sababli vujudga keladi. Ushbu maqolada bunday nizolarni hal etishning sud, arbitraj va mediatsiya mexanizmlari ko'rib chiqiladi, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil etiladi.*

Аннотация- *Авторское право является важной частью современной интеллектуальной собственности, обеспечивая защиту творческого труда авторов. Споры, возникающие из авторских договоров, могут быть вызваны финансовыми разногласиями, нарушением прав использования, угрозой личным правам и нарушением условий договора. В данной статье рассматриваются механизмы разрешения таких споров через суд, арбитраж и медиацию, анализируются их преимущества и недостатки.*

Annotation- *Copyright is a vital part of modern intellectual property, ensuring the protection of authors' creative labor. Disputes arising from copyright contracts can be caused by financial disagreements, violations of usage rights, threats to personal rights, and breaches of contract terms. This article examines the mechanisms for resolving such disputes through court proceedings, arbitration, and mediation, analyzing their advantages and disadvantages.*

Kalit so'zlar: *Mualliflik huquqi, shartnoma nizolari, sud, arbitraj, mediatsiya, intellektual mulk.*



Ключевые слова: Авторское право, договорные споры, суд, арбитраж, медиация, интеллектуальная собственность.

Keywords: Copyright, contract disputes, court, arbitration, mediation, intellectual property.

Mualliflik shartnomalari intellektual mulk subyektlari o‘rtasidagi muhim huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Ular asarni yaratgan muallif va undan foydalanuvchi o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilab beradi. Shu bilan birga, amaliyotda bunday shartnomalar asosida ko‘plab nizolar kelib chiqayotgani ma`lum. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida va “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunda mualliflik huquqlari, ularning shaxsiy va mulkiy tarkiblari, shartnoma asosida intellektual faoliyat natijasidan foydalanish qoidalari belgilangan. Bu normalar asosida mualliflik shartnomasiga oid nizolar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1. Moliyaviy nizolar: Bunday nizolar, odatda, mulkiy huquqlar asosida vujudga keladi. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, asardan foydalanganlik uchun muallifga haq to‘lanishi lozim. Shu jihatdan moliyaviy nizolar quyidagicha bo‘ladi:
 - Muallifga haq to‘lanmasligi yoki kechiktirilgan holda to‘lanishi;
 - Haq miqdorining noto‘g‘ri hisoblanishi yoki shartnoma shartlariga zid belgilanishi;
 - Foydalanish hajmi oshgan holda, qo‘srimcha to‘lov masalasida kelishmovchiliklar va yana boshqa holatlar .
2. Foydalanish huquqi doirasidagi nizolar O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, muallif asarni qanday shaklda, qayerda va qaysi doirada ishlatilishiga rozilik berish huquqiga ega. Agar bu rozilikdan chetga chiqilsa, quyidagi turdagи nizolar vujudga keladi:



- Asar boshqa nom ostida yoki muallif ruxsatisiz qayta ishlanib e'lon qilinishi;
 - Asardan internetda foydalanish, ko'chirish yoki tijoriy maqsadlarda sotish holatlari;
 - Litsenziya huquqlari buzilishi yoki foydalanuvchining vakolatidan ortiqcha harakatlari.
1. Shaxsiy nomulkiy huquqlarning buzilishi bilan bog'liq nizolar: Mualliflik huquqi doirasida nomulkiy huquqlar mualliflikni tan olish, ismini ko'rsatish, asarning butligini saqlash va boshqa holatlarni o'z ichiga oladi.
- "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunda bu huquqlar mustahkamlangan.¹ Ularning buzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:
- Muallif ismining ko'rsatilmasligi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi;
 - Asarga muallif ruxsatisiz tuzatishlar kiritilishi yoki uni buzib talqin etish;
 - Muallif sha'ni va obro'siga putur yetkazuvchi usullarda asardan foydalanish.
4. Sharhnomani bekor qilish yoki buzish bilan bog'liq nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va mualliflik huquqi to'g'risidagi bir qancha qonunlarda sharhnomani bekor qilish, bir tomonlama rad etish yoki buzishning huquqiy oqibatlari belgilab qo'yilgan. Bunday nizolar odatda quyidagicha bo'ladi:
- Sharhnomalar shartlari bajarilmagani sababli uning bekor qilinishi;
 - Taraflardan birining asarni to'liq yaratmasligi yoki topshirmasligi;
 - Taraflarning bir-biridan tovon, jarima yoki boshqa kompensatsiyalar talab qilishi.

Bunday nizolar, ko'p hollarda, kelisha olishmaydi va ularni hal etish uchun tomonlar sud yoki arbitraj tartibiga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Aynan shu bosqichda huquqni muhofaza qilishning protsessual vositalari sud ishi qo'zg'atish, da'vo berish, dalillarni taqdim qilish va boshqa holatlar muhim.

¹ "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun



Sud orqali hal etish tartibi

Mualliflik huquqlari buzilgan taqdirda, tomonlar sudga murojaat qilish orqali o‘z huquqlarini tiklashi mumkin. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Fuqarolik protsessual kodeksi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gigonun nazarda tutilgan. Sudga murojaat qilish asoslari quyidagilardan iborat:

- Mualliflik shartnomasining buzilishi;
- Muallifning nomulkiy huquqlarining buzilishi -ismi ko‘rsatilmasligi, asar o‘zgartirilishi;
- Asardan noqonuniy foydalanish;
- To‘lovlar bo‘yicha majburiyatlarning bajarmasligi.

Sud mualliflik huquqi egasining da’vosini ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlarni chiqarishi mumkin ko‘p hollarda: shartnomani haqiqiy emas deb topish, huquq buzilishini to‘xtatish, tovon puli yoki zarar uchun kompensatsiya tayinlash, asarning noqonuniy nusxalarini yo‘q qilish yoki boshqa qaror chiqarishi mumkin. Chunki har bir holat o‘ziga xos va turli xil bo‘lishi mumkin.

Arbitraj orqali hal etish- O‘zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, taraflar o‘zaro kelishuvga binoan nizolarni arbitraj tartibida ko‘rib chiqishga rozilik bildirishi mumkin. Bu suddan tashqari, xususiy va tezkor hal etish turidir. Arbitrajning afzallikkari quyidagilardan iborat:

- Jarayon yopiq va tezkor bo‘ladi;
- Ixtisoslashgan mutaxassislar ishtirok etadi;
- Xalqaro miqyosda tan olinadi
- Arbitraj qarorlarining bajarilishi O‘zbekiston arbitraj sndlari to‘g‘risidagi qonuniy asosga va xalqaro normalarga tayangan holda amalga oshiriladi.²

Mediatsiya va muqobil nizolarni hal etish usullari- 2019-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun asosida O‘zbekistonda mediatsiya instituti

² “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonun: <https://lex.uz>



faoliyat yuritmoqda³. Ushbu qonun mediasi ya`ni nizolarni hal etishdagi muhim vosita sifatida belgilaydi.

Mediatsiyaning afzalliklari: nizo tez va xarajat jihatdan arzonroq hal qilinadi, tomonlar o‘zaro kelishuvga erishgan holda, ishonchli munosabatlarni saqlab qolishadi va protsess konfidensial bo‘ladi va sud qaroriga muqobil huquqiy asosga ega. Garchi mediatsiya davlat majburiyati bilan ta’minlanmasa-da, tomonlar imzolagan kelishuvga ko‘ra, uning ijrosi qonuniy kuchga ega bo‘lishi mumkin. Mediatsiyaning qo‘llanilishi ayniqsa, muallifi va foydalanuvchi o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, masalan, to‘lov miqdori, muallif ismini ko‘rsatish kabi masalalarda qo‘llash to‘g‘ridir.

Xulosa qilib aytganda, mualliflik huquqi va shartnoma asosida yuzaga kelgan nizolarni hal etishda har bir turi - sud, arbitraj yoki mediatsiya o‘ziga xos ustunliklarga ega. Mazkur mexanizmlarning to‘g‘ri tanlanishi, nizoning mohiyatiga va tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, ularning qo‘llanilishi shartnomadagi aniq va huquqiy asoslangan bandlar orqali belgilanishi lozim. Mualliflik shartnomalari - zamonaviy huquqiy munosabatlarning muhim va dolzarb elementlaridan biri sifatida ijodkor va foydalanuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur shartnomalar asosida yuzaga keladigan nizolar esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va axloqiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shu bois, ularni qonunchilik asosida samarali hal etish mexanizmlarining mavjudligi va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi juda ham muhimdir.

O‘zbekiston qonunchiligida mualliflik huquqlarini himoya qilishda uchta asosiy turi mavjud: sud orqali hal etish, arbitraj tartibi va mediatsiya. Sud nizolarni hal etishning asosiy va universal vositasi hisoblanadi, biroq arbitrajning tezkorligi va mediatsiyaning osonligi uni samaraliligidir. Ayniqsa, shaxsiy nomulkiy huquqlarga oid masalalarda mediatsiya, murakkab nizolarda esa arbitraj tartibi ko‘proq amaliyotga tatbiq etilishi mumkin. Shu bilan birga, mualliflik huquqiga

³ “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun



oid nizolarning oldini olishning eng samarali yo‘li - bu shartnoma mazmunining huquqiy jihatdan mukammal va aniq tuzilgan bo‘lishidir. Shartnomada tomonlarning huquqlari, majburiyatları, mualliflik huquqining doirasi, foydalanish muddati, to‘lov miqdori, fors-major holatlari, shuningdek, nizolarni ko‘rib chiqish tartibi sud, arbitraj yoki mediatsiya batafsil ko‘rsatilishi zarur. Xulosa qilib aytganda, intellektual mulk huquqlari, xususan, mualliflik huquqining amaliy himoyasi - zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas belgilardan biridir. O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda qabul qilingan qonunlar va sud-amaliyot tajribasi, ushbu huquq sohasining barqaror rivojlanayotganini dalili. Kelgusida mediatsiya va arbitraj institutlarining kengayishi, shuningdek, sud organlarining ixtisoslashuvi mualliflik huquqlarining samarali himoyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Toshov B. Mualliflik huquqining nazariy asoslari va milliy amaliyoti. // Huquq va davlat, 2022, №4
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun
4. “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi qonun
5. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun

Maxmudova Nozima Yusupovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Patentshunoslik 4-bosqich talabasi

Mavzu: “Mualliflik shartnomalarida nizolarni hal etish va ularning turlari”

nozimamaxmudova55@gmail.com

+99891 263 52 19